XORAZM YOSHLARI ADABIY NUTQIGA SOTSIOLINGVISTIK OMILLARNING TA'SIRI

Mavlonberdiyeva Mohinur Qurbondurdi qizi
UrDU, Lingvistika (o'zbek tili) yo'nalishi
1-bosqich magistranti
Tel: +998944232102
E-mail: mavlonberdiyeva.mohinur.02@gmail.com
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20487073

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xorazm hududida yashovchi yoshlar nutqiga ta'sir etuvchi asosiy sotsiolingvistik omillar tahlil qilinadi. Tadqiqotda hududiy dialekt, ijtimoiy muhit, ta'lim jarayoni, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot shakllarining yoshlar nutqiga ta'siri empirik misollar asosida o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, yoshlar nutqi adabiy til me'yorlari va noadabiy unsurlar o'rtasidagi dinamik muvozanat asosida rivojlanmoqda. Tadqiqot natijalari sotsiolingvistika, nutq madaniyati va til siyosati yo'nalishlari uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: sotsiolingvistika, yoshlar nutqi, Xorazm shevasi, adabiy til, dialekt, argo, jargon, sleng, varvarizmlar, ijtimoiy tarmoqlar, nutq madaniyati, ijtimoiy omillar.

Kirish

Hozirgi globallashuv sharoitida til tizimi va uning ijtimoiy funksiyalari sezilarli transformatsiyalarga uchramoqda. Ayniqsa, yoshlar nutqi til tizimining eng dinamik va tez o'zgaruvchan qatlamlaridan biri sifatida alohida ilmiy e'tiborni talab qiladi. Yoshlar nutqida til taraqqiyotining yangi tendensiyalari, innovatsion birliklar va ijtimoiy o'zgarishlarning aks-sadosi yaqqol namoyon bo'ladi. Xorazm hududi o'zining boy tarixiy-lingvistik an'analari va o'ziga xos dialektal xususiyatlari bilan ajralib turadi. Mazkur hudud yoshlarining nutqi adabiy til va mahalliy sheva o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida shakllanadi va murakkab sotsiolingvistik hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Nazariy asoslar

Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy tabiati, uning jamiyatdagi funksiyalari, shuningdek, til rivojiga ta'sir etuvchi ekstralingvistik omillarni o'rganuvchi fan sifatida talqin etiladi. Tilning ijtimoiy differensiallashuvi, kod almashinuvi va til orqali identifikatsiya masalalari yoshlar nutqini tushunishda asosiy vosita hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat va qiyosiy-tahliliy metodlardan foydalangan holda Xorazm hududida yashovchi 18–25 yoshdagi 40 nafar respondentning og'zaki nutqi tahlil qilindi. Rasmiy va norasmiy kommunikativ vaziyatlarda nutq farqlari, shuningdek, argo, jargon, sleng va varvarizmlarning qo'llanishi aniqlashtirildi.

Tahlil va natijalar

Xorazm shevasiga xos fonetik va morfologik xususiyatlar yoshlar nutqida barqaror saqlangan: Tartib son yasovchi -(i)nchi qo'shimchasi shevada -(i)nji shaklida qo'llanadi: "birinchi" → "birinji", "ikkinchi" → "ikkinji". Ko'rsatish olmoshi "bu" ning "vi" yoki "vu" shakllari: "bu kitob" → "vi kitob".Kelishik kategoriyasida og'ishlar: "kitobning varag'i" → "kitobni varag'i". Fonetik o'zgarishlar: "t" → "d", "o" → "a". Bular adabiy til va sheva o'rtasidagi chegaraning sust ekanligini, nutqning gibrid shaklga ega ekanligini ko'rsatadi. Yoshlar o'z tengdoshlari orasida norasmiy, qisqartirilgan va soddalashtirilgan nutq

shakllarini keng qo‘llaydi, bu esa adabiy til me’yorlarining chekinishiga olib keladi. Rasmiy muhitda adabiy til, norasmiy muhitda esa sheva va aralash nutq faol ishlatiladi. Yoshlar nutqida keng qo‘llaniladigan birliklar:

Argo: kreditga qolmoq (fan soatini to‘ldirish), quyon bo‘lmoq (darsdan qochish).

Jargon: tema (oxirgi xabar), plan (reja), reslekt (hayratlanarli hodisa), yuraksiz, yurak (yordam bergan yoki xushxabar olgan talaba).

Sleng va varvarizmlar: karoche, zato, yerlicho, brat, ok mood, drama, yeslicho.

Ijtimoiy tarmoqlardagi salomlashish

Yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda salomlashishda adabiy “Assalomu alaykum” o‘rniga quyidagilarni ishlatadi:

Salom – oddiy, rasmiy bo‘lmagan.

Hello, Hi – inglizcha, global internet-muloqotda keng tarqalgan.

Nichik, Na gaplar – do‘stona, norasmiy nutq.

Ushbu shakllar adabiy nutq me’yorlarini “buzmasdan”, lekin nutqni gibrid va ijtimoiy identifikatsiyalashuvchi vosita sifatida boyitadi.

Xulosa

Xorazm yoshlari nutqi sotsiolingvistik omillar ta’sirida shakllanuvchi murakkab, ko‘p qatlamli tizimdir. Unda adabiy til me’yorlari, dialektal, ijtimoiy va texnologik elementlar uyg‘unlashgan. Tadqiqot natijalari nutqning gibrid xarakterini, ya’ni adabiy va norasmiy elementlar o‘rtasidagi dinamik muvozanat asosida rivojlanishini ko‘rsatdi. Ta’lim tizimi va ommaviy axborot vositalarida adabiy tilni targ‘ib qilish orqali bu me’yorlarni mustahkamlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fishman, J. A. (1972). The Sociology of Language.
2. Labov, W. (1972). Sociolinguistic Patterns.
3. Mahmudov, N. (2012). Til va nutq madaniyati. Toshkent.
4. Rahmatullayev, Sh. (2006). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent.
5. Crystal, D. (2003). English as a Global Language.
6. Yartseva, V. N. (1990). Lingvistik ensiklopediya.